

### **Zararkunanda hasharotlarni o‘rganish**

Matyoqubova Muxlisa Abdusalomovna  
Kozimova Mavluda Azamjonovna  
Andijon Davlat Pedagogika instituti  
Biologiya yo‘nalish talabalari

**Annotasiya:** Zararkunanda hasharotlar va ularning qishloq xo‘jaligiga tasiri hamda ularga qarshi kurashishda kimyoviy hamda biologik kurash haqida batafsil ma‘lumotlar keltirganimiz bu tezisda.

**Kalit so‘zlar:** entomofag, lichinka, biologik, biolobarato‘riya, qishloq xo‘jaligi, turlar.

**Kirish:** O‘simliklar zararkunandalari-madaniy zararlaydigan yoki uni nobud qiladigan jonzotlar sanaladi. Umurtqali hayvonlarning sut emizuvchilar sinfi, ayniqsa kemiruvchilar turkumiga mansub o‘simlik zararkunandalari ko‘p. Umurtqasiz hayvonlardan qorin oyoqli malyuskalarning ayrim turlari, nematodalar sinfidan yumaloq chuvalchaglarning ko‘pchiligi o‘simliklarni zararlaydi. Nina oyoqlilardan hasharotlar sinfi, o‘rgimchalsimonlar sinfi, kanalar ko‘poyoqlilar hamda qisqichbaqasi nonlardan (eshakqurt)kabi ko‘pchilik zararkunanda turlar bor. Zararkunanda hasharotlarning 700dan ortiq turi keltirilgan. Bu hozircha ma‘lum hasharotlarning 0.5% tashkil etadi. [Mavlonov O 7-sinf].

Zararkunanda shiralardan -olma shirasi, qizil qon shirasi, o‘rgimchakksimonlardan do‘lana kanasi, shish qo‘zg‘atuvchi nok kanasi kabilar qishloq xo‘jaligi madaniy ekinlar ha zarar keltiradi. Zararkunandalarga qarshi turli kimyoviy preparatlardan foydalanilmoqda. Biroq zararkunanda hasharotlar miqdorini cheklovchi tabiiy omillar bo‘lib, ularga kasallik chiqaruvchi mikroorganizmlar kiradi. Ular orasida viruslar katta ahamiyatga ega, yani maxsus ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ega.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra entomopogen virus g‘o‘zadagi ko‘sak qurtiga qarshi kurashishda foydalanilmoqda [B.A Sulaymonova Z.G‘. Nosirov] 2022-yil Respublika bo‘yicha 1034223 gektar maydonga chigit ekilib, to‘liq ko‘chatlar olindi va bugungi kunda parvarishlash ishlari davom ettirilmoqda . Qishloq xo‘jaligi sohasi mutaxassislari tomonidan 2022-yil hosili uchun ekilgan g‘o‘za maydonlarining 130825 gektarda kuzgi tunlam (ildiz qurti, 395263 ga da shira, trips 479345 gektarda o‘rgimchak kana , 205122 gektarda g‘o‘za qandalasi kabi xavfli hasharotlarning tarqalishi aytib o‘tilgan bo‘lsa, amalga oshirilgan kurash tadbirlari bugungi kunga qadar 374693 gektarda kuzgi tunlamga qarshi biologik (trixogramma) kurash, 2556 gektarda "aldamchi yem" va 22 gektarda kimyoviy kurash ishlari o‘tkazildi. Shuningdek , shira va tripsga qarshi 638499 gektarda biologik usulda , 686 gektarda kimyoviy ishlov berish ishlari olib borildi. 334252 gektar maydonda esa o‘rgimchak kanaga qarshi biologic

chora tadbirlari tashkil etildi. Ayni vaqtda o‘simliklar karantini va himoyasi agentligiga qarashli mavjud 640ta biolobarato‘riyalarda 3274mln dona (57.3%) oltin kuz, 3293.1kg (42.1%), trihogramma, 876.4mln dona (22.4%) brakkon entomofaglari ishlab chiqarilgan va biologik kurash ishlarida foydalanilmoqda. [B.S. Boltabouev Toshkent 2018 "Navro‘z nashriyoti" B.E. Murodov].

"Havir" biologik preparati bilan katta dala tajribalari O‘zbekiston Respublikasining Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlari fermer xo‘jaliglarida o‘tkazildi hamda yuqori biologik samaradorligi qayd etildi. Yana bir yangi va zararkunandalarga qarshi kurashishda muhim preparat O‘zRFA Mikrobiologiya institutida ishlab chiqarildi. Uning nomi ECOBAK. Bu preparat g‘o‘za tunlami, oq qanot, shira, o‘rgimchakkana, 1.2 yoshdagi Kolorado qo‘ng‘izi lichinkalari, karam tunlami olcha shilimshiq arrakashi, olxo‘ri soxta qalqondori, barg o‘rovchi kabi zararkunandalar uchun ishlab chiqarilgan va bugungi kun uchun zarur bo‘lgan zararkunandalarga qarshi kurashish vositasidir. [A.R. Anarbayev, O.A. Sulaymonov].

**Xulosa:** Zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashishda kimyoviy usullardan ko‘p foydalanishgan. Biologik kurashish jarayonida ham entomofaglardan foydalanishgan. Biz ham o‘simliklarga zarar yetkazmagan holda biologik kurashish usullari bo‘yicha tadqiqotlar obormoqchimiz. Bunda tabiiy yo‘llar bilan kimyoviy vositalarsiz, biror bir jonzotlarga zarar yetkazmagan holda ilmiy izlanishlar obormoqchimiz

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. V.V. Yaxontov; A.M. Sultonov. A. Muhammedov. Z. Odilov M Yunusov
2. R.O‘. Raxmatovich Toshkent shaxri--matbuotchilar ko‘chasi 32-uy email info@xs.uz
3. P.P. Bagush. Nevskiy, Lujeskiy, Narzikulov, Uspenskiy va boshqalar.
4. O‘z ME. 1-jild. Toshkent 2000-yil.